



TIJORAT BANKLARDA MOLİYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Hasanova Sevara Akram qizi
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish jarayonlari va ularni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Mahalliy iqtisodchilar fikrlari, xalqaro tajriba va bank tizimidagi amaldagi muammolar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar tijorat banklarining moliyaviy tahlil samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, balans, moliyaviy hisobot, moliyaviy ko'rsat-kichlar, moliyaviy resurslar, balans, xususiy kapital, rentabellik

IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL STATEMENTS IN COMMERCIAL BANKS

Hasanova Sevara Akram qizi
Graduate student of the Academy of Banking and Finance

Abstract: This article is aimed at studying the processes of financial reporting analysis and their improvement in commercial banks of Uzbekistan. Opinions of local economists, international experience and actual problems in the banking system were analyzed. The research conducted on the basis of statistical data serves to develop proposals for improving the efficiency of financial analysis of commercial banks.

Key words: accounting, balance sheet, financial report, financial indicators, financial resources, balance sheet, private capital, profitability

KIRISH

Tijorat banklari O'zbekiston iqtisodiy tizimida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish ularning barqaror rivojlanishi, qarorlar qabul qilish samaradorligi va mijozlar bilan ishlash sifatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda banklar xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) moslashmoqda, ammo ushbu jarayon amaliyotda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur maqola bu sohadagi mavjud kamchiliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

O'zbekiston bank tizimi so'nggi o'n yillikda islohotlar va modernizatsiya jarayonlarining markazida turibdi. Banklarning moliyaviy hisobotlari sifatini oshirish va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan strategiyalar xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashish jarayonini tubdan jadallashtirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va xolisligini ta'minlash uchun



"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda quyidagilar ta'kidlanadi: "Moliyaviy hisobotlar korxonaning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini xolis aks ettirishi kerak" [O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1996, 7-modda]. Ushbu talab moliyaviy hisobot ma'lumotlarining sifatli tahlil qilinishi uchun huquqiy asosdir.

Shuningdek, Milliy buxgalteriya hisobi standartlarining 2-sonli

"Moliyaviy hisobotni tayyorlashga qo'yiladigan talablar" bo'yicha quyidagilar qayd etilgan: "Moliyaviy tahlilning maqsadi korxonaning faoliyatini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratishdan iborat" [MBHS-2, 2020, 5.1-bo'lim].

Iqtisodchi olimlardan biri A.X. Axmedovning ta'kidlashicha, "Moliyaviy

tahlil korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshirishda asosiy vositalardan biridir. Ayniqsa, tijorat banklari uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish mijozlarga xizmat sifatini yaxshilash va ichki nazorat tizimini mustahkamlashga yordam beradi". U, shuningdek, o'z tadqiqotlarida "O'zbekiston bank tizimida moliyaviy tahlilni takomillashtirish uchun ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish va tahlil uslubiyatini standartlashtirish zarur", deb ta'kidlaydi. [Axmedov, 2020]

Karimovning fikricha, tijorat banklarida moliyaviy tahlilni

takomillashtirish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etish zarur. "Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish nafaqat vaqtni tejaydi, balki tahlil jarayonida xatoliklarni kamaytiradi". U, shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishda likvidlik va kapital yetarliligini baholashning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi:

"Bank faoliyatining samaradorligi, avvalo, uning likvidlik darajasi va kapital yetarliligi ko'rsatkichlaridan kelib chiqadi." [M.Karimov, 2019].

Nurmatovning fikriga ko'ra: "Banklarda moliyaviy tahlil jarayonida

asosiy e'tibor likvidlik, rentabellik va kapital yetarliligini baholashga qaratilishi kerak. Ushbu ko'rsatkichlar boshqaruv qarorlarining asosiy omili hisoblanadi". [Nurmatov, 2021]

Moliyaviy tahlilning shaffofligi Islomovning fikricha, bank tizimida

moliyaviy tahlil jarayonlarini yanada shaffof qilish orqali investorlar ishonchini oshirish mumkin.

"Moliyaviy tahlil natijalari xolis va ochiq bo'lsa, bu banklararo ishonchni

kuchaytiradi va investitsiyalarni jalb qiladi". Islomov, shuningdek, moliyaviy tahlil bank rahbariyatining boshqaruv qarorlarini qabul qilishida ishonchli vosita bo'lishini ta'kidlaydi.

"Moliyaviy tahlil samarador boshqaruv qarorlari uchun zarur ma'lumot bazasini ta'minlaydi." [X. Islomov, 2023]

Ma'lumki, moliyaviy natijalar tashkilotning asosiy faoliyatidan va boshqa

iqtisodiy operatsiyalaridan olingan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Bu natijalar odatda foyda va zararlar hisoboti orqali tahlil qilinadi.

R.Qurbonov va A.Rahimov o'z adabiyotlarida bu to'g'risida shunday

ta'kidlashadi: "... moliyaviy natijani daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq va foyda yoki zarar ko'rinishida bo'lishini anglash mumkin. Bundan keng tarqalgan model vujudga keladi, unga asosan daromadlar bu kirib keluvchi mablag'lar oqimi, xarajatlar esa chiqib ketuvchi mablag'lar oqimi; foyda (zarar) ular o'rtasida vujudga keluvchi farq va u balansda



aks etib uni o'zgartiradi. Buxgalteriya hisobining ushbu yondashuvlari moliyaviy natijani aktivlar o'sishi yoki mablag'lar kirimi va chiqimi oqimlari o'rtasidagi farqiga olib keladi. Bu moliyaviy natijani to'liq ifodalab bera olmaydi, chunki har qanday mablag'lar kirimi ham daromad (foyda) hisoblanmaydi yoki mablag'lar chiqimi ham xarajatni ifodalamaydi. Masalan, bank ta'sisчилarni qo'shimcha badal kiritish orqali ustav kapitalini ko'paytirdi. Bu albatta, bank uchun foyda emas, shuningdek, bank tomonidan qilingan investitsiyalar mablag'lar chiqimini ifodalasa, u xarajat emas."

Shu bilan birga, G.I. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar

O'zbekiston bank tizimida moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish bo'yicha alohida e'tibor talab qilinishini ko'rsatadi. U tijorat banklarining moliyaviy holatini baholashda audit tahlilining ahamiyatini urg'ulagan.

Bu fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, o'zbek iqtisodchilari

O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy tahlil jarayonini takomillashtirishda muhim yo'nalishlarni belgilab berishgan. Ammo, ularning tavsiyalarini amalda qo'llash darajasini oshirish talab etiladi.

Qo'llanilgan ilmiy tadqiqot metodlari

Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishda asosiy

tamoyillarni belgilash uchun iqtisodiyot va bank sohasi bo'yicha mavjud nazariy va uslubiy yondashuvlar o'rganildi. Bu jarayonda mahalliy va xorijiy iqtisodchilar, jumladan, O'zbekiston iqtisodchilarining ilmiy ishlari ko'rib chiqildi.

Mavzuga oid milliy va xalqaro ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, va

tahliliy hisobotlar o'rganildi. O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yorituvchi statistik ma'lumotlar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi.

Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlarini vizualizatsiya qilish

orqali ma'lumotlarni samarali taqdim etish rejalashtirilgan. Bu yondashuv O'zbekiston bank tizimidagi dolzarb muammolarni aniqlashda yordam beradi. Bundan tashqari tijorat banklari moliyaviy barqarorligini aniqlovchi indikatorlarni chuqur tahlil qilish orqali ular orasidagi mantiqiy bog'liqlik va ularning kompleks bahosiga e'tibor qaratildi.

Natija va tahlil

O'zbekiston bank tizimi davlat, xususiy va xorijiy banklarning

aralashmasidan iborat. So'nggi yillarda mamlakatda xorijiy banklarning ishtiroki ortib bormoqda, bu esa raqobatning kuchayishiga va moliyaviy mahsulotlarning diversifikatsiyasiga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank sektorini tartibga solish va nazorat qilish uchun mas'uldir.

Bankni moliyaviy tahlil qilishdan maqsad shuki, bu jamiyatimizdagi turli sohalarda ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlashdir.

Moliyaviy hisobot keng doiradagi foydalanuvchilarning axborotga

bo'lgan talabini qanoatlantirish uchun tuziladi va davriy ravishda taqdim etiladi.

1-jadval.

O'zbekistonda moliyaviy hisobot tarkibi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobot tarkibi
Buxgalteriya balansi
Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot



Xususiy kapital to'g'risida hisobot
Pul oqimlari to'g'risida hisobot
Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar
Olingan mablag'larning maqsadli ishlatilishi haqida hisobot

Hozirgi kunda O'zbekistonda tijorat banklarida moliyaviy natijalar

ko'rsatkichlarini shakllantirish algoritmi Markaziy bank tomonidan belgilangan moliyaviy hisobot shakllari va buxgalteriya hisobi standartlariga asoslanadi. Jumladan, Markaziy bank tomonidan 2004-yil 6-noyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank nazorati bo'yicha taqdim etiladigan tijorat banklari hisobotlarini to'ldirish tavsiyalari" to'g'risidagi 584-yo'riqnoma bo'yicha 0204IS "Foyda va zararlar to'g'risidagi" hisobot shaklni to'ldirish to'g'risidagi metodik ko'rsatmalar asos bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi" to'g'risida

Qonunining 22-moddasiga ko'ra, Moliyaviy hisobot - buxgalteriya hisobi subyekting hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Moliyaviy natijalar bir-biri bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

hisoblanadi va ular tijorat banklarida daromad va xarajatlarni bir-biriga solishtirish orqali aniqlanadi. Moliyaviy natijani bank faoliyatini amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan daromad, xarajat, foyda va zarar ko'rinishidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'rinishida talqin qilish, uni hisobga olishda va tahlil qilishda ma'lum bir ketma-ketlikka asoslanishi zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish orqali ikkita natijaviy ko'rsatkichga ega bo'linadi:

1. korxona boshqaruv apparatining faoliyatiga baho beriladi;
2. moliyaviy holatning ayrim ko'rsatkichlarini prognozlash imkoni tug'iladi.

Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish bankning moliyaviy

holatini baholash, samaradorlikni oshirish va xavflarni aniqlash uchun muhimdir. Bu jarayon investorlar, aksiyadorlar va davlat organlari oldida ochiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlil orqali strategik qarorlar qabul qilinib, bankning raqobatbardoshligi oshiriladi va moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi. Shuningdek, bu bank faoliyatining qonunlarga va bozordagi talablarga muvofiqligini kafolatlaydi.

Banklarda moliyaviy hisobotning asoslari :

Bank balansi ma'lumotlari;

Bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) to'g'risidagi hisobot;

Bank buxgalteriyasi sintetik va analitik hisobraqamlari ma'lumotlari.

Respublikamiz tijorat banklarida moliyaviy hisobotni tahlil qilishda bir qancha vazifalar bajarilishi lozim:

2-jadval

O'zbekistonda moliyaviy hisobotni tahlil qilish vazifalari

faoliyat moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar) aniqlash;
foydaning belgilangan reja, o'tgan davrlardan farqini o'rganish;
foydaning tarkibi: daromad va xarajatlarni qanday o'zgarayotganligini o'rganish;



faoliyat davomida tejamkorlikka rioya qilinayotganligini o'rganish;
rentabellik(foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash;
xarajatlarni kamaytirib, daromadlarni ko'paytirib, foydasini ko'paytirish, ichki imkoniyatlarni aniqlash va shu kabilar hisoblanadi.

O'rganilgan adabiyotlardan umumiy hulosasi qilib ayta olamizki, tijorat

banklarida moliyaviy natija milliy me'yoriy hujjatlar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan belgilab qo'yilgan siyosatlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobotlarni tizimli tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi. Bu jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Daromad va xarajatlar tahlili

Daromad manbalari: Banklar o'z daromadlarini asosiy operatsiyalardan,

Shu jumladan kreditlar, to'lovlar, komissiyalar va boshqa moliyaviy xizmatlardan olingan foiz daromadlarini hisoblab chiqadilar.

Xarajatlar toifalari: Depozitlar bo'yicha to'lanadigan foizlar, ma'muriy

xarajatlar va ishlaymaydigan kreditlar bo'yicha rezervlar kabi operatsion xarajatlar hisobga olinadi.

2. Foyda va zarar (P&L) hisobotini tayyorlash

Foyda va zarar hisoboti sof moliyaviy natijani aniqlash uchun

tayyorlanadi, u sof foyda (jami daromad umumiy xarajatlardan oshadi) yoki sof zarar (xarajatlar daromaddan oshib ketadi) bo'lishi mumki.

3. Tuzatishlar va qoidalar

Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar, valyuta ayirboshlash daromadlari yoki

yo'qotishlari uchun zaxiralar hamda riskga asoslangan boshqa tuzatishlar tuziladi.

Ushbu qoidalar Markaziy bankning prudensial talablariga rioya etilishini ta'minlaydi va bankning haqiqiy moliyaviy holatini aks ettiradi.

4. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar

Aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) va sof foiz marjasi

(NIM) kabi ko'rsatkichlar rentabellik va operatsion samaradorlikni baholash uchun hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkichlar banklar bo'yicha ko'rsatkichlarni taqqoslash va jahon

standartlariga mos kelishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

5. Normativ nazorat

O'zbekiston Markaziy banki tijorat banklarining likvidlik, kapitalning

yetarilishi va risklarni boshqarish standartlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida

ularning moliyaviy natijalarini diqqat bilan kuzatib boradi.

Banklar oshkoralik va mahalliy va xalqaro qoidalarga muvofiqligini

ko'rsatish uchun muntazam hisobot va ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak.

6. Yillik auditlar

Banklar o'z moliyaviy natijalarining to'g'riligini tekshirish uchun ichki va

tashqi auditdan o'tadilar. Ushbu auditlar moliyaviy hisobotda shaffoflik va javobgarlikni ham oshiradi.

Banklar o'z faoliyatini baholashda asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan biri



sifatida foyda va zarar to'g'risidagi hisobotga tayanadi. Ushbu hisobot daromad manbalari, xarajatlar va natijada olingan sof foyda yoki zarar haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. U bank boshqaruvi, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi va muassasaning moliyaviy barqarorligi haqida tushuncha beradi. Biroq, tijorat banklarida foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va tahlil qilish tobora takomillashtirishni talab qilmoqda.

Faoliyatning yakuniy natijasi foyda yoki zararni hisob-kitob qilishning an'anaviy shakli quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

Foyda (zarar) = Daromad - xarajat

Daromadlar tarkibidagi nomutanosibliklarni aniqlash; foizsiz daromadlarni oshirish imkoniyatlarini izlash; bank xizmatlarining diversifikatsiyasi orqali daromad bazasini kengaytirish yo'llarini taklif qilish.

Mazkur tahlil tijorat bankining moliyaviy salohiyatini yaxshilash, barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi

Dunyoning globallasuvi va integratsiyasi sharoitida Respublikamiz iqtisodiyoti uchun asosiy vazifalardan biri tijorat banklar moliyaviy hisobotining to'liq nashr etilganligini tahlil qilish va baholash usullarini takomillashtirish, tijorat bankining moliyaviy hisoboti tahlili usullarining nomuvofiqligi, murakkabligi tufayli hisob-kitoblar va reyting tizimidagi subyektivlik tizimi yangi manbalarni izlash masalasi dolzarbdir

Tijorat banklarda moliyaviy hisobotlar, xususan, foyda va zarar hisobotini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotimiz yana aniqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirishi mumkin bo'lgan bir qancha innovatsion yondashuvlarni aniqladi. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi va real vaqt rejimida ma'lumotlar integratsiyasidan foydalangan holda balansni tayyorlashni soddalashtirish va IFRS kabi xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, oshkoralik va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muloqotdagi yutuqlar ishonch va hamkorlikni yaxshilashi mumkin. Banklar tobora kuchayib borayotgan tartibga soluvchi nazorat va bozor o'zgaruvchanligiga duch kelishda davom etar ekan, ushbu tadqiqotga asoslangan metodologiyalarni qabul qilish mustahkam va ishonchli moliyaviy hisobot tizimlarini saqlash uchun muhim bo'ladi

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalaridan quyidagi asosiy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

1. Hisobot segmentatsiyasini yaxshilash: Tijorat banklarining moliyaviy holatini to'g'ri baholash uchun batafsil segmentatsiya bilan P&L hisobotlarini tayyorlash zarur. Ushbu yondashuv qaysi bank faoliyati eng foydali ekanligini yoki zararga olib kelishini aniqroq tushunish imkonini beradi.

2. Kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (ECL) hisoblash tizimlarini takomillashtirish: kredit risklarini baholash va yo'qotishlarni bashorat qilish usullarini kuchaytirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun juda muhimdir. Kutilayotgan kredit yo'qotishlarining aniqroq hisob-kitoblari bank operatsiyalaridagi risklarni kamaytirishga va moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga yordam beradi.



3. Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlariga (IFRS) muvofiqligini ta'minlash: Banklarning P&L hisobotlari IFRS talablariga muvofiq ravishda tuzatilishi kerak. Muvofqlik moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi va global miqyosda banklarning raqobatbardoshligini oshiradi.

4. Risklarni baholash va tahlil qilish tizimlarini rivojlantirish: moliyaviy risklarni erta aniqlash va tahlil qilish vositalarini kuchaytirish bank rahbariyatiga operatsiyalarni samarali nazorat qilish, kutilmagan yo'qotishlarni kamaytirish va umumiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

5. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni yanada kengroq oshkor qilish orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning shaffofligini oshirish investorlar va manfaatdor tomonlarga bankning moliyaviy ahvoli haqida aniqroq tushuncha beradi. ‘

Moliyaviy tahlil va bank faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Tahlil va baholash usullarini yanada aniqlashtirish.
- ✓ Moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash.
- ✓ Me'yoriy ko'rsatkichlar va xalqaro standartlar o'rtasida uyg'unlikni mustahkamlash.
- ✓ Bank faoliyatini tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Ushbu yo'nalishlar bank sektorining barqarorligini oshirish va moliyaviy holatni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 404-sonli qaroriga asosan yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, 13.04.2016 yil, 22-modda // lex.uz
2. A'zamov, "Moliyaviy tahlilning zamonaviy usullari", Toshkent, 2022.
3. B. Xolmatov, "O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy faoliyati", Toshkent, 2021.
4. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, Darslik, - T.:2021, 332 b.
5. Axmadoxunova, X. O. (2021). O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTNI
6. RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA O'TISHNING ROLI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(8), 257-261.
7. TIJORAT BANKLARINING HISOB SIYOSATI VA MOLIVAVIY HISOBOTLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR TO'G'RISIDAGI NIZOM
8. Qurbonov R. ,A.Rahimov 2021 "Bank nazorati va tahlili"darslik " Nihol print"
9. Rizaev N., Ibragimov A., Ergasheva Sh, Yakubov M (2023) "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" qayta to'ldirilgan 2-nashr darslik



10. Sh.T. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev, I.R. Ibragimova (2019) “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” o’quv qo’llanma “Iqtisodiyot” nashriyoti.
11. Karimov N.F (1998) “Risklar va tijorat banklarining foydani shakllantirish muammolari.